

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati**  
**Komplayens xizmati tomonidan joriy yilning 8 oyi**  
**davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

**H I S O B O T**

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o‘rinlarda – Jamiyat*)ning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens xizmatiga **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan 9 tasi xodimlar bilan to‘ldirilgan.

Xodimlar tomonidan “onlayn” malaka oshirish kurslariga qatnashib, bilim salohiyati oshirilishi natijasida Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish Akademiyasi (*International Anti-Corruption Academy*)ning “Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish” yo‘nalishida **9 ta** va “Aktivlarni deklaratsiyalash – korrupsiyani aniqlash indikatori” yo‘nalishida **8 ta**, “Xaridlar sohasida korrupsiya va firibgarlikni oldini olish” yo‘nalishida **2 ta** sertifikatlari olindi. Bundan tashqari, Moliya vazirligining “Davlat xaridlarini amalga oshirish” yo‘nalishida **7 ta** hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining sohaga oid **2 ta** sertifikatlari olindi.

2023-yil 1-aprelga qadar ISO 37001:2016 xalqaro standartining muvofiqlik sertifikatini olish yuzasidan **Yo‘l xaritasi** tasdiqlanib, uning ijrosi bo‘yicha **11 ta** ichki idoraviy hujjat ishlab chiqildi. Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Komplayens xizmatining nizomi, Xodimlarni ishga qabul qilish tartibi, Odob-axloq kodeksi, Xodimlarini odob-ahloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma, Korrupsiyaga oid harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash reglamenti, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash to‘g‘risidagi Nizom, Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti, Nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma, Xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom, “NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari, odob-ahloq qoidalarini hamda boshqa qonunbuzilish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlari va o‘rganishlar o‘tkazish bo‘yicha” Reglamentlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Shu bilan birga, xalqaro standart talablaridan kelib chiqib, **4 ta** ichki idoraviy hujjat loyihalari tegishli tuzilmalar bilan kelishilmoqda.

Komplayens xizmati tomonidan jami **663 ta** (*542 ta buyruq va 121 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan 26 ta takliflar ishlab chiqilib, 9 tasi amaliyotga joriy etildi va 14 tasi o‘rganib chiqilmoqda.

Joriy yilning 8 oyi davomida Komplayens xizmatiga jami 89 ta ijro hujjatlari kelib tushgan bo‘lib, shundan muddati kelgan 59 tasining ijrosi ta‘minlandi.

Xaridlar sohasida “Potensial tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilarining dastlabki malakasini baholash bo‘yicha tashkil etilgan komissiya” (*komissiya*)

*tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **21 ta** tender hujjatlari bo'yicha 73 ta tovar etkazib beruvchilar hujjatlari ko'rib chiqilib, **1 ta** holatda manfaatlar to'qnashuvi oldi olindi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 8-iyuldagi 1-11/32-5292-9-son xatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-martdagi "2022-yilda normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 140-son qarorida ko'rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra, "Navoiy KMK" AJ 80 ball bilan baholanib, 109 ta idoralar orasidan 29 o'rinni egallagani e'tirof etildi.

Jamiyatning rasmiy veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" va "Ochiq ma'lumotlar" bo'limlari joriy etildi. Mazkur bo'limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallar hamda Komplayens xizmatining mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirildi.

O'tgan davr mobaynida jamiyat xodimlari bilan **30 marotaba** huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Xususan, 15 ta seminar, 10 ta uchrashuv, 2 ta rasmiy veb-saytga va 1 ta gazetaga maqola hamda 1 ta so'rovnoma o'tkazilib, 1 ta taqdimnoma muhokama etildi.

Jumladan, 2022-yil 30-iyunda Navoiy viloyati Adliya boshqarmasi bilan birgalikda joriy yilning iyul oyida jamiyatning barcha bo'linmalarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun mohiyatini ishchi xodimlarga tushuntirish va o'qitish" yuzasidan seminar Jadvali tasdiqlandi va mazkur jadval asosida jamiyatning barcha tarkibiy bo'linmalarida 15 marotaba seminarlar tashkil etildi.

Fuqaro murojaatlari va topshiriqlarga asosan jami **12 ta** o'rganish hamda xizmat tekshiruvini o'tkazilib, 5 tasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi. Xususan,

1 ta holatda Ixtisoslashtirilgan prokuratura tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, jamiyat manfaatlariga etkazilgan zarar summasi to'liq undirilishi ta'minlandi.

1 nafar rahbar xodim ma'muriy va 6 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortildi.

**Komplayens xizmati boshlig'i**

**A.Soliyev**